

YoShLARGA OID DAVLAT SIYOSATI DOIRASIDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALAR**Xadjiev A.K. -***Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazining mustaqil tadqiqotchisi.***Otanazarov K.A. –***UrDU talabasi*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyoti bevosita axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon ijtimoiy munosabatlar, boshqaruv tizimi va fuqarolarning huquqiy ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasining raqamli muhitga yuqori darajada integratsiyalashuvi ularning bilim olish, axborot iste'moli va ijtimoiy faollik shakllarini tubdan o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida, O'zbekistonda internet foydalanuvchilarining qariyb 60 foizini 14–30 yoshdagi aholi tashkil etadi, bu esa huquqiy bilimlarni aynan raqamli platformalar orqali yetkazish zaruratini kuchaytiradi [1].

Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati doirasida huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy savodxonlik yoshlarning o'z huquq va majburiyatlarini anglash darajasi, qonunlarga ongli amal qilishi hamda huquqiy munosabatlarda mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Raqamli platformalar mazkur jarayonda huquqiy bilimlarni tezkor, qulay va samarali shaklda yetkazish imkonini yaratib, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim institutsional vositaga aylanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy savodxonlik masalasi fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi yoshlar orasida huquqbuzarliklar, huquqiy befarqlik va ijtimoiy passivlikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida baholanadi. Raqamli ta'lim texnologiyalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda esa e-learning platformalar huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekani ta'kidlanadi. Mahalliy ilmiy izlanishlarda O'zbekiston sharoitida huquqiy axborot portallari, elektron davlat xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi roli o'rganilgan. Jumladan, Lex.uz va my.gov.uz orqali huquqiy axborotga ochiq kirish ta'minlangani ijobiy holat sifatida baholanadi. Biroq mavjud adabiyotlarda raqamli platformalarning yoshlar ongiga real ta'siri, ularning amaliy samaradorligi hamda hududlar kesimida tahlili yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi so'z erkinligi tushunchasining mazmunan kengayishiga va transformatsiyalanishiga olib kelmoqda. An'anaviy yondashuvda so'z erkinligi asosan ommaviy axborot vositalari — matbuot, radio va televideniye orqali fikr bildirish huquqi sifatida talqin etilgan bo'lsa, raqamli muhitda ushbu tushuncha yanada murakkablashmoqda. Xorijiy tadqiqotchi Martin Bujelaning fikricha, raqamli makonda so'z erkinligi nafaqat fikrni erkin ifoda etish huquqini, balki internetga erkin kirish, raqamli platformalardan foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni boshqarish hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash huquqlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv so'z erkinligi sohasidagi xalqaro huquqiy standartlarni zamonaviy raqamli muhit talablariga mos ravishda yangilash zarurligini ko'rsatadi [2].

So'nggi yillarda internetga kirish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Xususan, 2016 yilda BMT Inson huquqlari kengashi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyada "raqamli tafovut"ni bartaraf etish hamda internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi alohida ta'kidlangan [3]. Mazkur hujjatda internetga kirishni cheklash so'z erkinligi huquqining buzilishi sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv internetga kirishni ta'minlash masalasini so'z erkinligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan zamonaviy huquqiy norma sifatida shakllantiradi va xalqaro standartlarning evolyutsiyasini namoyon etadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar — ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar va onlayn forumlar bugungi kunda

soʻz erkinligini amalga oshirishning asosiy maydoniga aylangan. Biroq mazkur platformalarning aksariyati xususiy kompaniyalar tomonidan boshqarilib, kontentni moderatsiya qilish boʻyicha oʻz ichki qoidalariga ega. BMTning soʻz erkinligi boʻyicha maxsus maʼruzachisi boʻlgan David Kayening taʼkidlashicha, xususiy kompaniyalar tobora koʻproq kontentni moderatsiya qilish orqali soʻz erkinligini tartibga solishda muhim rol oʻynamoqda, bu esa davlat va xususiy sektor oʻrtasida yangi huquqiy munosabatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur holat raqamli makonda soʻz erkinligini taʼminlashda xususiy sektorning masʼuliyati va javobgarligini qayta koʻrib chiqish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Mazkur tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari oʻrganildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida raqamli huquqiy taʼlimning anʼanaviy usullarga nisbatan ustun jihatlari aniqlandi. Empirik kuzatuvlar va ikkilamchi statistik maʼlumotlar asosida yoshlarning raqamli platformalardan foydalanish darajasi baholandi. Shuningdek, raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari yoshlar ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, raqamli platformalar huquqiy savodxonlikni oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Masalan, Lex.uz va my.gov.uz portallari orqali normativ-huquqiy hujjatlarga tezkor, bepul va cheklovsiz kirish imkoniyati yaratilgan boʻlib, bu huquqiy axborotga boʻlgan talabni sezilarli darajada oshirgan. Onlayn kurslar, vebinarlar, interaktiv testlar va huquqiy chat-botlar yoshlarning huquqiy bilimlarni passiv emas, balki faol tarzda oʻzlashtirishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa videolar va infografikalar murakkab huquqiy normalarni sodda va vizual shaklda tushuntirish imkonini bermoqda. Biroq, qator muammolar ham aniqlangan. Birinchidan, huquqiy axborotlarning murakkab va rasmiy tilda bayon etilishi yoshlar tomonidan toʻliq anglanmasligiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, ayrim chekka hududlarda internet infratuzilmasining yetarli emasligi raqamli tengsizlikni keltirib chiqarmoqda. Uchinchidan, yoshlarning huquqiy mavzularga qiziqishi pastligi asosan huquqiy kontentning zerikarli va hayotdan uzilgan shaklda taqdim etilishi bilan izohlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi konstitutsiyaviy normalari raqamli muhitda soʻz va axborot erkinligini taʼminlashga mustahkam huquqiy asos yaratadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga muvofiq, har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega boʻlib, istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlanadi. Mazkur modda davlat zimmasiga Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish majburiyatini ham yuklaydi. Shu bilan birga, axborot erkinligini cheklash faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzum, jamoat xavfsizligi, ijtimoiy axloq hamda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish zarurati bilan bogʻliq holatlardagina yoʻl qoʻyilishi belgilangan. Ushbu norma raqamli platformalar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish va soʻz erkinligini muvozanatli taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalar yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy savodxonlikni oshirishning strategik va samarali vositasi hisoblanadi. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etmasdan turib, ushbu platformalarning toʻliq salohiyatidan foydalanish mushkul.

1. Huquqiy kontentni yoshlar psixologiyasi va ehtiyojlariga mos holda soddalashtirilgan, vizual va interaktiv shaklda ishlab chiqish: Amaldagi huquqiy axborotlarning aksariyati murakkab, rasmiy va yuridik terminlarga boy tilda bayon etilgani sababli yoshlar tomonidan toʻliq anglanmaydi. Mazkur taklif Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021yil 18 yanvardagi “Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” bilan bevosita uygʻunlashadi [4]. Konsepsiyada yoshlar ongiga mos, innovatsion va raqamli taʼlim mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda Adliya vazirligi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy mavzudagi qisqa videoroliklar va infografikalar joylashtirilayotgani ushbu yondashuvning dastlabki amaliy koʻrinishidir. Huquqiy axborotning yoshlar uchun tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazilishi huquqiy ongning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Internet imkoniyati cheklangan hududlar uchun offline rejimda ishlovchi mobil ilovalar va SMS-xizmatlarni joriy etish: Hududlar o'rtasida internet infratuzilmasining notekis rivojlanganligi raqamli tengsizlikni yuzaga keltirmoqda. Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda raqamlashtirishni jadallashtirish"ga qaratilgan tashabbuslari, xususan 2024-yil 15-maydagi PQ-178-son qarori bilan chambarchas bog'liq [5]. Ushbu qarorda hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish va teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ba'zi davlat xizmatlarida SMS-xabarnomalar orqali axborot yetkazish amaliyoti joriy etilgan bo'lib, bu tajribani huquqiy savodxonlik yo'nalishida ham kengaytirish mumkin. Hududlar kesimida huquqiy savodxonlik darajasidagi tafovutlar qisqaradi va huquqiy axborotga universal kirish ta'minlanadi.

3. Huquqiy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan o'yinlar, virtual sud jarayonlari va simulyatsion dasturlarni yaratish: An'anaviy ma'ruza va matnli materiallar yoshlar uchun yetarlicha qiziqarli bo'lmaydi. Bu taklif IT Park Uzbekistan, "Prezident maktablari" va "IT-shaharcha"lar faoliyatining asosiy maqsadlariga mos keladi. Mazkur institutlarda innovatsion va amaliy ta'lim usullarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsion mashg'ulotlar texnik yo'nalishlarda allaqachon qo'llanilmoqda. Ushbu tajribani huquqiy ta'limga moslashtirish orqali "virtual sud jarayoni" modellarini yaratish mumkin. Yoshlar huquqiy bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy darajada o'zlashtiradi, huquqiy mas'uliyat va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

4. Yoshlarni kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli huquqlar bo'yicha muntazam va tizimli o'qitish: Raqamli muhitda kiberjinoyatlar va shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi ortib bormoqda. Mazkur taklif Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan olib borilayotgan kiberxavfsizlik siyosati hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan uzviy bog'liq. Ba'zi oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi fanlari joriy etilgan bo'lib, ushbu tajribani umumiy huquqiy savodxonlik kurslari bilan integratsiyalash mumkin. Yoshlarning raqamli muhitdagi huquqiy himoyasi kuchayadi, kiberxavflarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabat shakllanadi.

Ko'rinib turibdiki, taklif etilgan choralarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va strategik hujjatlar bilan mantiqiy va institutsional jihatdan uyg'unlashgan. Ularning izchil amalga oshirilishi raqamli platformalarni huquqiy savodxonlikni oshirishning barqaror va samarali mexanizmiga aylantiradi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatimizda 2020 yil dekabr oyida tashkil etilgan O'zbekiston yoshlari forumida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga murojaatnomasida qayd etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yoshlarga raqamlashtirish va xorijiy tillarni o'rganish uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan "IT-shaharcha"lar faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2024-yil 15-maydagi PQ-178-son qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga va xalqimizga murojaatnomasi
4. O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi <https://gov.uz/oz/digital/news/view/11791>
5. International Covenant on Civil and Political Rights. – United Nations, 1966. – Article 19.
6. United Nations Human Rights Council. (2016, July 18). The promotion, protection and enjoyment of human rights on the Internet (Resolution A/HRC/RES/32/13). undocs.org

REZYUME:

Mazkur maqolada Ўzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati doirasida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda raqamli platformalarning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy bilimlarni raqamli texnologiyalar orqali yetkazish mexanizmlari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, huquqiy savodxonlik, raqamli platformalar, axborot texnologiyalari, onlayn taъlim, huquqiy madaniyat, yoshlar.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье анализируется роль и значение цифровых платформ в повышении правовой грамотности молодежи в рамках государственной молодежной политики Республики Узбекистан. Также предлагаются механизмы распространения правовых знаний посредством цифровых технологий и меры по устранению существующих проблем.

Ключевые слова: государственная политика в отношении молодежи, правовая грамотность, цифровые платформы, информационные технологии, онлайн-образование, правовая культура, молодежь.

RESUME:

This article analyzes the role and importance of digital platforms in improving the legal literacy of young people within the framework of state youth policy in the Republic of Uzbekistan. It also puts forward mechanisms for delivering legal knowledge through digital technologies and proposals for eliminating existing problems.

Keywords: state policy on youth, legal literacy, digital platforms, information technologies, online education, legal culture, youth.